
BUNYODKORLIK: MAHALLALAR YO'LLARI ASFALT QILINMOQDA

Yangi O'zbekistonda el aziz, inson aziz!

???? Bugun yurtimizning qay bir hududiga bormang ulkan bunyodkorlik ishlari guvoh bo'lasiz. Ayniqsa, yo'lsozlarimiz tomonidan mahallalardagi ichki yo'llar tez va sifatli qilib ta'mirlanmoqda. Ma'lumki, Rishton tumanining olis va chekka hududlarida ham obodonlashtirish-bunyodkorlik ishlari olib borilmoqda.

???? To'raobod MFY hududidagi o'qituvchilar ko'chasida 2,5 km yo'lni asfaltlash ishlari sifatli qilib yakunlandi. Ushbu ko'cha asfalbtashtirish taklifi «Ochiq byudjet» axborot portalidagi «Mening yo'llim» loyihasida g'olib deb topilgan edi. 800 millin so'mga yaqin mablag' evaziga keng va ravon yo'llar barpo etildi. Tumanda olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari natijasida ushbu mahalla hududida yashovchi aholi yana bir qulaylikka ega bo'ldi.

???? Shuningdek, Oq-tomir mahalla fuqarolar yig'inida ham 850 mert asfaltlash ishlari olib borilib, fuqarolarga yengillik yaratildi.- So'nggi yillarda olib borilayotgan islohotlar natijasida tumandagi eng chekka hududlar ham obod go'shaga aylanmoqda, deydi Oq -tomir MFY raisi Adhamjon Oripov. - Yomg'irli kunlarda ushbu ko'chada yurish biroz noqulayliklar tug'dirar edi. Endi esa yo'llarimiz ravon bo'ldi. Inson qadri ulug'langan yurtda har bir fuqaro uchun qulayliklar yaratilmoqda. Buning uchun barcha rahbarlarga minnatdorchilik bildirib o'tamiz.

Rishton tumani hokimligi axborot xizmati.

2022-08-09 14:21:32